

# Microsoft PowerPoint yordamida professional taqdimotlar yaratish

Akbar Shuhratovich Kodirov  
ORCID: 0000-0002-3656-5770  
akbar2005ak@gmail.com  
Shahinabonu Sherzod-qizi Abdualimova  
abdualimovashahinabonu45@gmail.com  
Humora Olimjonova  
humoraolimjonova935@gmail.com  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Microsoft PowerPoint dasturi yordamida professional taqdimotlar yaratishning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Unda taqdimot dizaynining asosiy tamoyillari, slaydlarni samarali tuzish, vizual elementlardan (grafika, diagramma, animatsiya) to'g'ri foydalanish hamda auditoriya e'tiborini jalb etish usullari haqida atroflicha fikr yuritiladi. Taqdimot yaratishda minimalizm, ranglar uyg'unligi va axborotni qisqa hamda aniq yetkazish kabi muhim omillarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola davomida foydalanuvchilar uchun amaliy tavsiyalar berilib, taqdimot sifati va ta'sirchanligini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Microsoft PowerPoint, taqdimot, slayd, dizayn, vizualizatsiya, animatsiya, diagramma, grafik elementlar, minimalizm, ranglar uyg'unligi, auditoriya bilan muloqot, axborotni samarali yetkazish, multimedia texnologiyalari

## Creating Professional Presentations Using Microsoft PowerPoint

Akbar Shuhratovich Kodirov  
ORCID: 0000-0002-3656-5770  
akbar2005ak@gmail.com  
Shahinobonu Sherzod-qizi Abdualimova  
abdualimovashahinobonu45@gmail.com  
Humora Olimjonova  
humoraolimjonova935@gmail.com  
Shahrisabz State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article covers the theoretical and practical aspects of creating professional presentations using Microsoft PowerPoint. It discusses in detail the basic


principles of presentation design, effective slide layout, the correct use of visual elements (graphics, diagrams, animations), and methods for attracting the audience's attention. When creating a presentation, special attention is paid to such important factors as minimalism, color harmony, and concise and clear presentation of information. The article provides practical recommendations for users and shows ways to improve the quality and effectiveness of presentations.

**Keywords:** Microsoft PowerPoint, presentation, slide, design, visualization, animation, diagram, graphic elements, minimalism, color harmony, audience communication, effective communication of information, multimedia technologies

**Kirish.** Axborot almashinuvi jadallashgan hozirgi davrda ma'lumotni qisqa, aniq va ta'sirchan shaklda yetkazish hammamiz uchun muhim ekanligi sir emas. Turli sohalarda faoliyat yurituvchi mutaxassislar o'z g'oyalari va natijalarini keng auditoriyaga tushunarli tarzda taqdim etishga intiladi. Shu jarayonda Microsoft PowerPoint dasturi samarali vositalardan biri sifatida keng qo'llanadi. Taqdimot jarayonida mazmun va shakl uyg'unligiga e'tibor berish kerak. Axborotni tartibga solish, uni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish, vizual elementlar orqali boyitish hamda auditoriya e'tiborini jalb etish muayyan ko'nikmalarni talab qiladi. Slaydlarni ortiqcha ma'lumot bilan to'ldirmaslik, asosiy g'oyani ajratib ko'rsatish, rang va shrift tanloviga e'tibor qaratish taqdimot samaradorligini oshiradi. Zamonaviy taqdimotlar nafaqat matn, balki tasvir, diagramma, animatsiya va multimedia vositalarini uyg'unlashtirish orqali yanada ta'sirchan ko'rinish kasb etadi. Bunday yondashuv tinglovchining qiziqishini oshiradi, mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi hamda esda saqlash darajasini kuchaytiradi.

Microsoft PowerPoint dasturi taqdimot tayyorlash jarayonida keng qo'llaniladigan, foydalanuvchiga qulay interfeys va turli imkoniyatlarni taqdim etuvchi dasturiy vositadir. Dastur yordamida matnli axborotni vizual shaklga keltirish, uni slaydlar orqali tizimli tarzda ifodalash hamda auditoriyaga tushunarli yetkazish imkoniyati yuzaga keladi. Quyida ushbu dastur bilan ishlash jarayoni izchil va batafsil bayon etiladi.

Dasturdan foydalanishni boshlash uchun avvalo uni ishga tushirish zarur. Kompyuterda o'rnatilgan dasturlar ro'yxati orqali PowerPoint topilib, ishga tushiriladi. Aksariyat hollarda u Microsoft Office dasturlar to'plamiga kiritilgan bo'ladi. Dastur ochilgach, foydalanuvchi uchun yangi loyiha yaratish imkoniyati taqdim etiladi. Bu bosqichda mavjud tayyor shablonlardan foydalanish yoki mutlaqo yangi, bo'sh taqdimot ustida ishlash imkoniyati mavjud. Tayyor shablonlar dizayn jihatdan mukammal bo'lib, vaqtni tejashga xizmat qiladi, bo'sh taqdimot esa ijodiy erkinlikni kengaytiradi.




1-rasm. PowerPoint dasturining ko'rinishi

Keyingi bosqich slydlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Har bir taqdimot alohida slydlardan tashkil topadi va ular ma'lum mantiqiy ketma-ketlik asosida joylashtiriladi. Yangi slyd qo'shish "Home" bo'limi orqali amalga oshiriladi. Foydalanuvchi slyd turini tanlash orqali sarlavhali, matnli yoki rasm joylashuvi uchun mo'ljallangan variantlardan birini belgilaydi. Slyd tarkibiga matn kiritish jarayonida asosiy fikrni qisqa va lo'nda ifodalash tavsiya etiladi. Uzun va murakkab jummalardan qochish, asosiy g'oyani ajratib ko'rsatish taqdimot samaradorligini oshiradi.

Vizual elementlardan foydalanish taqdimotning ta'sirchanligini sezilarli darajada kuchaytiradi. "Insert" bo'limi orqali rasm, jadval, diagramma, video va boshqa obyektlarni qo'shish mumkin. Diagrammalar statistik ma'lumotlarni tushunarli ko'rinishda ifodalashga yordam beradi, rasmlar esa tinglovchining e'tiborini jalb etadi. Ortiqcha elementlardan foydalanmaslik muhim, chunki bu taqdimotning asosiy mazmunini soyada qoldirishi mumkin.

Dizayn va bezak masalalari alohida e'tibor talab qiladi. "Design" bo'limi orqali slydlar uchun mos ranglar, fon va umumiy uslub tanlanadi. Ranglar uyg'unligi, shriftlarning o'qilishi osonligi va umumiy kompozitsiya taqdimot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Minimalistik yondashuv aksariyat hollarda samaraliroq natija beradi, chunki u ortiqcha chalg'ituvchi elementlarni kamaytiradi.



2-rasm. Slydlarga maxsus animatsiyalar berish

Animatsiya va o'tish effektlari taqdimotni yanada jonli ko'rinishga olib keladi. "Animations" bo'limi orqali matn va obyektlarga turli harakat effektlari beriladi. Biroq animatsiyalardan me'yorida foydalanish lozim, chunki haddan tashqari ko'p effektlar tinglovchini chalg'itishi mumkin. Slaydlar o'rtasidagi o'tish effektlari ham umumiy uyg'unlikni saqlagan holda tanlanadi.

Taqdimotni yakunlash bosqichida uni saqlash va namoyish etish amalga oshiriladi. "File" bo'limidagi "Save As" funksiyasi orqali fayl kerakli joyga saqlanadi, odatda .pptx formatida yoziladi. Tayyor taqdimotni ko'rsatish uchun "Slide Show" rejimi ishga tushiriladi yoki klaviaturadagi F5 tugmasi bosiladi. Ushbu jarayon taqdimotning yakuniy ko'rinishini baholash va auditoriyaga namoyish etish imkonini beradi.

Mazkur yondashuv PowerPoint dasturidan samarali foydalanish, mazmunli va mukammal taqdimotlar tayyorlashda dasturi amal bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni yoritishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, darsliklar, metodik qo'llanmalar hamda zamonaviy internet manbalari chuqur o'rganildi. Xususan, taqdimotlarni yaratish jarayonida nafaqat texnik imkoniyatlar, balki pedagogik, psixologik va dizayn yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etishi aniqlanadi.

Xorijiy adabiyotlar orasida C. Atkinsonning "Beyond Bullet Points" asari alohida e'tiborga loyiq bo'lib, unda PowerPoint taqdimotlarini samarali tashkil etishda hikoya (storytelling) metodining ahamiyati asoslab berilgan. Muallif taqdimot mazmunini oddiy slaydlar ketma-ketligi sifatida emas, balki mantiqiy tuzilgan hikoya tarzida qurish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv auditoriya e'tiborini oshirishga xizmat qiladi.

N.Duarte tomonidan yozilgan "Slide:ology" asarida esa taqdimot dizaynining nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Muallif vizual elementlar, ranglar uyg'unligi, shrift tanlash va grafik vositalardan foydalanish orqali ma'lumotni samarali yetkazish usullarini ko'rsatib beradi. Ushbu asar taqdimotlarni estetik va professional darajada tayyorlashda muhim metodik manba hisoblanadi. Mahalliy olimlardan A.Abduqodirov va A.Hayitovning "Ta'limda axborot texnologiyalari" asarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, taqdimot dasturlaridan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Unda PowerPoint dasturi o'quv jarayonini vizuallashtirish, interfaollikni oshirish va ta'lim samaradorligini ta'minlash vositasi sifatida tavsiflanadi. X.Tursunov va B.Karimovlarning "Axborot texnologiyalari" darsligida esa PowerPoint dasturining funksional imkoniyatlari, slaydlar bilan ishlash, animatsiyalar qo'llash va taqdimotlarni namoyish etish texnikalari batafsil tushuntirilgan. Ushbu manba dasturiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi..

Tajriba va sinov. Microsoft PowerPoint dasturidan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida amaliy tajriba o'tkazildi. Tajribada turli darajadagi foydalanuvchilar ishtirokida bir nechta taqdimot variantlari ishlab chiqildi hamda ularning samaradorligi solishtirildi. Tajriba jarayonida ikki xil yondashuv asos qilib olindi. Birinchi holatda oddiy, minimal dizaynga ega, ortiqcha animatsiyalarsiz tayyorlangan taqdimotlar yaratildi. Ikkinchi holatda esa ko'plab vizual effektlar, murakkab animatsiyalar va turli ranglar uyg'unligidan foydalanilgan slaydlar ishlab chiqildi. Har ikki variant auditoriyaga namoyish etildi va tinglovchilarning qabul qilish darajasi kuzatildi.

Soddalashtirilgan va mantiqiy tuzilgan taqdimotlar auditoriya tomonidan yaxshiroq qabul qilindi. Bunday slaydlarda asosiy g'oya aniq ifodalanganligi sababli tinglovchilar ma'lumotni tezroq anglab yetdi. Aksincha, ortiqcha animatsiyalar va rang-barang elementlarga boy taqdimotlar diqqatni chalg'itib, mazmuni to'liq qabul qilishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sinov jarayonida slaydlardagi matn hajmi, shrift tanlovi va vizual elementlar o'rtasidagi muvozanat ham alohida o'rganildi. Qisqa va lo'nda matn, o'qilishi oson shriftlar hamda sifatli tasvirlardan foydalanilgan taqdimotlar yuqori baholandi. Diagramma va grafiklardan foydalanish statistik ma'lumotlarni tushunishni sezilarli darajada yengillashtirdi. O'tkazilgan tajriba va sinov natijalari PowerPoint dasturida professional taqdimot yaratishda minimalizm, aniqlik va vizual muvozanat asosiy mezonlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Microsoft PowerPoint dasturi axborot uzatish jarayonida muhim vosita sifatida shakllangan bo'lib, u orqali ma'lumotlarni tizimli, vizual va ta'sirchan ko'rinishda ifodalash imkoniyati bor. Taqdimot tayyorlash jarayonida mazmunning aniqligi, mantiqiy ketma-ketlik, dizayn uyg'unligi hamda vizual elementlardan oqilona foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Ortiqcha bezak va murakkab animatsiyalardan voz kechib, soddalik va aniqlikka asoslangan yondashuv yanada samarali natija beradi. Slaydlar tarkibini tartibli tashkil etish, asosiy g'oyani ajratib ko'rsatish va auditoriya ehtiyojlarini hisobga olish taqdimot sifatini oshiradi. Amaliy tajriba natijalari PowerPoint dasturidan foydalanishda muvozanatli dizayn, qisqa matn va mos vizual vositalarning uyg'unligi muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Binobarin, mazkur dastur yordamida tayyorlangan taqdimotlar nafaqat axborotni yetkazish vositasi, balki auditoriyaga ta'sir ko'rsatishning samarali usuli hamdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'rtakov M. O'qitishda taqdimot metodikasi: nazariy va amaliy yondashuvlar. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2020.
2. Xusainov A., Tursunov F. Taqdimot san'ati va kommunikatsiya. — Toshkent: SciencePress, 2019.

3. Smith P. Samarali taqdimotlar: kuchli taqdimotlar yaratish bo'yicha amaliy qo'llanma. — Nyu-York: Routledge, 2017.

4. Zinn M. PowerPoint taqdimotlari: yaratish va taqdim etish. — London: Sage Publications, 2015.

5. Shuxratovich, Akbar Kodirov. "The importance and advantages of using information technologies in education." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.1 (2022): 46-50.

6. Kodirov, Akbar, Gulasal Ruziyeva, and Marjona Yusupova. "Elektron qo'llanmalar yaratishda autoplay dasturidan foydalanish va imkoniyatlarini ta'lim tizimda talqin etish." *Универсальная индексная библиотека науки и техники в современном мире* 3.4 (2024): 51-55.

7. Kodirov, Akbar, and Aziza Mannonova. "PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR." *Универсальный индекс библиотеки молодых ученых* 3.35 (2025): 119-121.